



“LEKSIKOLOGIYANING NAZARIY ASOSLARI VA TIL TIZIMIDAGI O'RNI”

Toshpo'latova Marjona G'ulomjonovna

Navoiy innovatsiyalar universiteti Filologiya va tillarni o'qitish: rus tili yo'nalishi 2- bosqich 2- guruh talabasi

Azamatova Farangiz Zoxidjon qizi

Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi 2- bosqich 6- guruh talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada leksikologiyaning nazariy asoslari, uning tilshunoslik fanlari tizimidagi o'rni va ilmiy ahamiyati atroflicha yoritiladi. Tadqiqot doirasida leksikologiyaning predmeti, vazifalari hamda asosiy kategoriyalari tahlil qilinib, leksik birliklarning mohiyati, ularning shakl va mazmun jihatdan xususiyatlari keng ko'lamda ko'rib chiqiladi. Xususan, so'z va uning ma'nosi, semantik tuzilma, ko'p ma'nolilik, sinonimiya, antonimiya, omonimiya kabi leksik hodisalar ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada tilning leksik tizimi, uning ichki strukturasi va tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yoritilib, leksik qatlamlarning shakllanishi hamda rivojlanish qonuniyatlari ochib beriladi.*

Zamonaviy tilshunoslikda leksikologiyaga oid dolzarb muammolar, yangi yondashuvlar va tadqiq metodlariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari leksikologiyaning til tizimidagi markaziy o'rnini asoslashga, so'z boyligini o'rganishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Mazkur maqola tilshunoslik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, ilmiy tadqiqotchilar hamda ushbu sohaga qiziquvchilar uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *leksikologiya, leksik birlik, so'z ma'nosi, semantika, leksik tizim, sinonimiya, antonimiya, omonimiya, ko'p ma'nolilik, til tizimi, strukturaviy tahlil, funksional xususiyatlar, til boyligi, leksik qatlam, til taraqqiyoti.*

Аннотация: *В данной статье подробно рассматриваются теоретические основы лексикологии, её место и значение в системе лингвистических наук. В рамках исследования анализируются предмет, задачи и основные категории лексикологии, а также сущность лексических единиц, их формальные и содержательные характеристики. Особое внимание уделяется слову и его значению, семантической структуре, а также таким лексическим явлениям, как многозначность, синонимия, антонимия и омонимия. Кроме того, в статье освещается лексическая система языка, её внутренняя структура и взаимосвязи между её компонентами, раскрываются закономерности формирования и развития лексических слоёв. Рассматриваются актуальные проблемы современной лингвистики в области лексикологии, а также новые подходы и методы исследования. Результаты исследования способствуют обоснованию центральной роли лексикологии в системе языка и углублённому пониманию теоретических и практических аспектов изучения словарного состава. Статья*



может быть полезна студентам, исследователям и всем, кто интересуется вопросами языкознания.

Ключевые слова: *лексикология, лексическая единица, значение слова, семантика, лексическая система, синонимия, антонимия, омонимия, многозначность, языковая система, структурный анализ, функциональные особенности, словарный состав, лексический слой, развитие язык.*

Annotation: *This article comprehensively examines the theoretical foundations of lexicology, as well as its role and significance within the system of linguistic sciences. The study analyzes the subject, objectives, and key categories of lexicology, along with the nature of lexical units and their formal and semantic characteristics. Special attention is given to the word and its meaning, semantic structure, and such lexical phenomena as polysemy, synonymy, antonymy, and homonymy. In addition, the article explores the lexical system of language, its internal structure, and the interrelations among its components, highlighting the patterns of formation and development of lexical layers. Current issues in modern linguistics related to lexicology, as well as new approaches and research methods, are also discussed.*

The findings of the study contribute to substantiating the central role of lexicology in the language system and to a deeper understanding of both theoretical and practical aspects of vocabulary study. The article is intended for students, researchers, and anyone interested in linguistic studies.

Keywords: *lexicology, lexical unit, word meaning, semantics, lexical system, synonymy, antonymy, homonymy, polysemy, language system, structural analysis, functional features, vocabulary, lexical layer, language development.*

Mazkur maqolada leksikologiyaning asosiy yo'nalishlari, uning bo'limlari va til rivojlanishidagi o'rni haqida so'z yuritiladi. So'zlarning ma'no o'zgarishi, yangi atamalarning paydo bo'lishi va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning tilga ta'siri ham tahlil qilinadi. Leksikologiya tili o'rganish jarayonida uning ichki tizimini tushunishga yordam beruvchi fan sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Leksikologiya — tilshunoslikning til lug'at tarkibi, ya'ni muayyan bir tilning leksikasini o'rganuvchi bo'limi. Leksikada har bir so'zni yolg'iz holda emas, balki boshqa so'zlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Leksikologiya tilshunoslikning leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya yoki semantika, etimologiya, stilistika hamda so'z yasalishi haqidagi ta'limot kabi sohalari bilan chambarchas bog'liq.

Leksikologiyaning asosiy muammolaridan biri so'zning mustaqil til birligi sifatida mavjudligi masalasidir. Leksikologiyada so'zlarning ma'no jihatdan o'zaro bog'langan, ya'ni monosemiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, so'z ma'nolarining erkin yoki bog'liq holda bo'lishi kabi masalalari ham o'rganiladi.

Leksika muayyan bir tizim sifatida ko'rilganda, so'z ma'nolari va tushunchalarning o'zaro bog'liq holda bo'lishi ko'zda tutiladi. L. lug'at tarkibining amalda ishlatilishi va taraqqiyoti qonuniyatlarini, so'zlarning uslubiy jihatdan tasnifiy tamoyillarini ishlab chiqadi. Shuningdek, so'zlashuv va adabiy tillarda foydalanish



me'yorlarini, professionalizm, dialektizm, arxaizm, neologizm, leksikalashgan so'z birikmalarini

me'yorlashtirish kabi masalalarni tahlil etadi hamda bular haqida muayyan xulosalar chiqaradi. Ko'chma ma'no — so'zning o'z asosiy ma'nosi bilan metonimik (Metonimiya), metaforik (k., Metafora) aloqadorlik, vazifaviy (vazifadoshlik) butunning qismini yoki bo'lak ma'nolarda (sinekdoxa) umumiylik yoki qandaydir

assotsiativ (o'zaro o'xshash) belgilar bilan bog'liq ikkilamchi, hosila ma'nosi. Demak,

so'zning to'g'ri ma'nolaridan boshqalari uning Ko'chma ma'nolaridir. Ongimizda qandaydir xususiyatlari, belgilari bilan bir-biriga yaqin bo'lgan ikki predmet yoki hodisani chog'ishtirish, o'xshatish Ko'chma ma'noga asos qilib olinadi, ya'ni biror

predmet yoki voqea-hodisa haqida aniq, yorqin tasavvur hosil qilish uchun unga boshqa biror predmet yoki voqeaning belgisi ko'chiriladi, o'xshatiladi. Masalan: kishining bolaligini "g'uncha", yomon baho olishni "yiqilmoq" so'zi bilan ifodalash, "Oybek asarlarini o'qidim" deyish o'rniga "Oybekni o'qidim" deyish, "samovar"

so'zini choyxona ma'nosida ishlatish Ko'chma ma'noga misol bo'la oladi. Ko'chma ma'no adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaviyligi va ta'sirchanligini oshiradi. Lekin lug'at tarkibidagi barcha so'zlar ham Ko'chma ma'noda qo'llanavermaydi. Mas, aksariyat kasb-hunar atamalari, ilmiy terminlar ko'chma ma'noda deyarli ishlatilmaydi. Leksikologiya bizning tilimiz uchun kerakli va muhim tilshunoslik bo'limi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tursunov U. va boshqa, Hozirgi o'zbek adabiy tili, T., 1965;
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili, 1-j., T., 1966;
3. Mirzayev M.va boshqa, O'zbek tili, T., 1970.
4. Bozorboy O'rinboyev. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil;